



Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)


2018 yil yanvar-mart

Viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-mart oylarida 56,2 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 28,8 mln. AQSh dollarini va import 27,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi 1,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, shundan MDH davlatlari bilan 9,1 mln. AQSh dollarni va boshqa davlatlar bilan -7,7 mln. AQSh dollarni tashkil etdi.

Oxirgi yillarda viloyatimizning eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo`yicha o`shish kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o`tgan yilning shu davriga nisbatan 143,4 foizni, kimyo mahsuloti va plastmassa 176,4 foizni, rangli metal mahsulotlari 173,5 foizni, mashina va asbob uskunalar 59,0 xizmatlar eksporti 404,0 foizni, boshqalar 108,6 foizni tashkil qiladi.


Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan foizda




Oziq-ovqat mahsulotlari importining o`tgan yilning shu davriga nisbatan 91,6 foizni, mashina va asbob uskunalar 183,2 foizni, rangli metal mahsulotlari 69,6 foizni, qora metal mahsulotlari 35,7 foizni, ish va xizmatlar importi 139,5 foizni tashkil qildi.

Tashqi savdo

Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan foizda



2018 yil yanvar-mart oylarida viloyatimiz tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda





Tashqi savdo MDH davlatlari orasida Rossiya va Qozog'iston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 26,2 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Eron, Afg'oniston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 63,6 foizni tashkil qildi.

Tashqi savdo

Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

Eksport

Import



Eksport bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston va Ukraina davlatlari eksport aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami eksport aylanmasidagi ulushi 45,3 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Afg'oniston, Eron, Vetnam, Iroq davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 48,4 foizni tashkil qildi.

Import bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlari import aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami import aylanmasidagi ulushi 13,2 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya, Eron davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 79,5 foizni tashkil qildi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksport xajmi 4,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 126,1 %ga oshdi.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo statistikasi bo'lim boshlig'i
S.Xaitmamatov